



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi
Ilmiy-uslubiy jurnal
Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi № 066379-
raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga
olingan va O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi rayosatining 2025-
yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori
bilan ro'yxatdan o'tkazilgan
hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha
dissertatsiyalarning asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center"
MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

31.03. 2026.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.
Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD). dots.
Toshqulov A.H. – i.f.d, prof.
Absamatov A.E. – i.f.d., dots.
Ruzmetov B. – i.f.d. prof.
Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.
Ro'ziyev O.A. – i.f.n., dots.
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.
Shodiyev A.A. – i.f.d., dots.
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.
Qodirov U.D. – p.f.d., prof.
Turopova S.K. – f.f.d., dots.
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots
Yarmatov Sh.CH. – i.f.f.d (PhD).
Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).
Absamatov As.E. – i.f.f.d (PhD)
Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).
Xoliyorov E.Ch. – f-m.f.n., dots.
Esanov A.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xudoyberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD)
Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD), dots v.b.
Xayrullayev I.N. – f-m.f.n., dots.
Bozorov S.B. – f.f.f.d. (PhD)
Sattarova Y.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD), dots.
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Yormatov F. J. – t.f.n., dots.
Xoshimxo'jayeva M. –f.f.f.d. (PhD), dots.
Ismoilov B.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Salomov G'. Y. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Uralova O. P. – f.f.d (DSc), dots.
Xolov O.Ch. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Usmonov M. Q. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Abdusamatov A.S. - p.f.f.d. (PhD). dots.
Norkulova Sh. T. – f.f.f.d. (PhD)
Shoturayev J. – p.f.f.d. (PhD).
Abduraxmanov A.Y. – t.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

N.A. ABDURAIMOVA, M.N. KARIMOVA

Tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirishni takomillashtirish asosida aholi bandligini ta'minlashning iqtisodiy tahlili.....5

N.A. ABDURAIMOVA, M.T. RO'ZIYEVA

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....10

G.A. AXMETOVA

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash omillari.....16

S.R. BOYPO'LATOV

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning roli.....21

M.SH. CHORIYEVA

Eksport salohiyatidan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish omillari.....26

N.X. DO'SMUXAMEDOVA

Nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillari.....32

B.A. ERDANAYEV

Hududiy rivojlanishda drayver tarmoqlarning o'рни va ularni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari37

N.N. ESHQULOVA, SH.B. ABDUNABIYEV

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi va xizmatlar eksporti dinamikasi tahlili.....42

M.X. KURBOSHEVA

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning nazariy-metodologik asoslari.....47

O.J. MURODOV, H.I. G'ULOMOV

Paxta tozalash korxonalarida moliyalashtirish-innovatsiya uzilishi: O'zbekiston agroklastarlari misolida empirik tahlil.....52

SH.S. MUZRAPOVA, N.S. MUZRAPOVA

Ekonometrika ta'limida interaktiv va amaliy matematika asosidagi yondashuvlarning samaradorligini baholash.....59

Z.M. NORALIYEVA

Qishloq joylarni rivojlantirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes samaradorligini oshirish yo'llari.....66

A.P. PARDAYEV

O'zbekiston bank tizimini strategik transformatsiya jarayonining tahlili.....74

J.R. SAYFIYEV

Agile transformatsiya jarayonidagi kutilayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.....77

A.A. SHODIYEV, B.A. SHODIYEV

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....82

B.E. TURAYEV

Iqtisodiy o'sish omillarini kobb-duglas modeli asosida ekonometrik baholash.....89

Z.I. XAKIMOV

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalash yo'nalishlari.....93

N.A. XAKIMOVA

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab - quvvatlashda subsidiya amaliyotini takomillashtirish.....98

SH.D. XAYDAROVA

Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.....103

L.L. XAYRULLAYEVA

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil iqtisodiyot yondashuvi va an'anaviy iqtisodiy model.....107

Y.Z. XUDAYAROVA

Asalarichilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni lasso regression modeli asosida tahlil qilish.....112

R.A. XURRAMOV

Hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini prody indeksi asosida statistik tahlil qilish.....116

G.A. YUSUPOV

Uzoq muddatli aktivlarda adaptiv amortizatsiya usuli.....122

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....126

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....134

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....137

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqe'lik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....140

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....144

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....147

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish150

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....153

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....157

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....160

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....164

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....169

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....173

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....176

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....180

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....187

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....190

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....194

G'A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....198

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....202

SH.T.YAKUBOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....205

N.B.RAUPOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....208

M.SH.BURIYEVA

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....213

Z.M.ALLAYEV

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....218

Z.F.ERGASHEVA, G'Y.SALOMOV

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....221

L.A.RAIMOV

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....225

A.A.QARAQULOV

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....229

N.A.UMAROVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....234

M.T.MENGNAROVA

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....238

I.B.JURAEV

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....242

D.A.BADALOV

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....248

F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....252

M.O.BEGALIYEVA

Pattakesar.....257

Buxoro davlat universiteti
Xayrullayeva Lola Lutfullayevna
E-mail: xayrullayevalola21@gmail.com

IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA YASHIL IQTISODIYOT YONDASHUVI VA AN'ANAVIY IQTISODIY MODEL

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada iqtisodiy o'sishni ta'minlash jarayonida yashil iqtisodiyot yondashuvining o'rni va ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilinib, u an'anaviy (klassik) iqtisodiy model bilan qiyosiy ravishda o'rganilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi iqtisodiy rivojlanish jarayonida ekologik omillarni hisobga olish zaruratini ilmiy asoslash hamda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi funksional mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida nazariy-tahliliy, qiyosiy va tizimli tahlil metodlari qo'llanilib, iqtisodiy o'sishning turli modellarida resurslardan foydalanish samaradorligi va ekologik barqarorlik darajasi baholandi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, klassik iqtisodiy model asosan qisqa muddatli iqtisodiy samaradorlik va ishlab chiqarish hajmining oshishiga yo'naltirilgan bo'lib, ekologik va ijtimoiy omillarni yetarli darajada hisobga olmaydi. Yashil iqtisodiyot esa iqtisodiy rivojlanishni atrof-muhit muhofazasi, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan integratsiyalashgan yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi iqtisodiy o'sishni faqat miqdoriy ko'rsatkichlar orqali emas, balki uning ekologik va sifat jihatlarini bilan birgalikda baholash zarurligini asoslab berishdan iborat. Olingan xulosalar yashil iqtisodiyot tamoyillarini iqtisodiy siyosat va strategik rejalashtirish jarayonlariga tatbiq etishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, klassik iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik muvozanat, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik mas'uliyat, yashil texnologiyalar, iqtisodiy va ekologik uyg'unlik.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА: ПОДХОД «ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ» И ТРАДИЦИОННАЯ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ

АННОТАЦИЯ

В данной статье теоретически анализируется роль концепции зелёной экономики в обеспечении экономического роста и проводится её сравнительное исследование с традиционной (классической) экономической моделью. Цель исследования заключается в обосновании необходимости учёта экологических факторов в процессе экономического развития и определении места зелёной экономики в обеспечении устойчивого развития. В ходе исследования применены теоретико-аналитический и сравнительный методы, что позволило оценить особенности различных моделей экономического роста с точки зрения эффективности использования ресурсов и экологической устойчивости. Результаты анализа показывают, что классическая экономическая модель в основном ориентирована на краткосрочную экономическую эффективность и рост объёмов производства, в то время как зелёная экономика направлена на согласование экономического развития с охраной окружающей среды и рациональным использованием природных ресурсов. Научная новизна исследования заключается в необходимости оценки экономического роста не только по количественным показателям, но и с учётом его экологических аспектов.

Ключевые слова: зелёная экономика, классическая экономика, устойчивое развитие, экологическое равновесие, эффективное использование природных ресурсов, возобновляемые источники энергии, экологическая ответственность, зелёные технологии, экономическая и экологическая гармония.



ENSURING ECONOMIC GROWTH: GREEN ECONOMY APPROACH AND TRADITIONAL ECONOMIC MODEL

ABSTRACT

This article provides a theoretical analysis of the role and significance of the green economy approach in ensuring economic growth and examines it in comparison with the traditional (classical) economic model. The main objective of the study is to substantiate the necessity of considering environmental factors in the process of economic development and to identify the functional mechanisms of the green economy in achieving sustainable development. The research employs theoretical-analytical, comparative, and systemic analysis methods, which allow for the assessment of resource use efficiency and the level of environmental sustainability within different economic growth models. The results of the analysis demonstrate that the classical economic model primarily focuses on short-term economic efficiency and the expansion of production volumes, often neglecting environmental and social factors. In contrast, the green economy represents an integrated approach aimed at harmonizing economic development with environmental protection, rational use of natural resources, and social sustainability. The scientific novelty of the study lies in justifying the need to evaluate economic growth not only through quantitative indicators but also through its qualitative and environmental dimensions. The findings of the research have practical significance and may be applied in the formulation of economic policy and strategic planning processes oriented toward sustainable development.

Keywords: green economy, classical economics, sustainable development, ecological balance, efficient use of natural resources, renewable energy, environmental responsibility, green technologies, economic and environmental harmony.

KIRISH

So'nggi yillarda davlatlar orasidagi iqtisodiy o'sish atrof-muhitga ma'lum darajada va tobora oshib borayotgan zarar bilan birgalikda namoyon bo'lib, hozirgi zamonning jiddiy muammolaridan biriga aylanmoqda. Sanoat ishlab chiqarishining kengayishi ishlab chiqaruvchilarning tabiiy resurslardan tobora ko'proq foydalanishga intilishiga sabab bo'lib, bu o'z navbatida kichik miqyosli va hatto global muammolarga - resurslar tanqisligiga, ekologik ahvolning buzilishiga va iqlim o'zgarishiga olib kelmoqda. Klassik iqtisodiyot asosan iqtisodiy o'sish va foydani maksimal darajada oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ekologik omillar ko'pincha ikkinchi darajali hisoblanadi. Natijada iqtisodiy jarayonlarning inson faoliyati va farovonligiga salbiy ta'siri kuchayib, iqtisodiy yuksalishda ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga oluvchi yangi yondashuvga ehtiyoj sezilmoqda. Shu sharoitda "yashil iqtisodiyot" tushunchasi atrof-muhitga kam zarar yetkazuvchi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muqobil model sifatida shakllanmoqda. Tadqiqot doirasida, avvalo, yashil iqtisodiyotning ilmiy adabiyotlarda shakllangan asosiy talqinlari va konseptual yondashuvlari umumlashtiriladi hamda ushbu modelning iqtisodiy rivojlanishdagi funksional mexanizmlari aniqlanadi. Shuningdek, mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyot va klassik

iqtisodiyotning nazariy asoslari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari va farqlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, klassik iqtisodiyotning ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlariga oid nazariy qarashlari ko'rib chiqilib, ularning ekologik omillar bilan o'zaro aloqasi baholanadi.

Tadqiqot davomida yashil iqtisodiyot tushunchasining mazmuni va uning shakllanishiga olib kelgan omillar yoritilib, klassik iqtisodiyotdan ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi. Shuningdek, har ikki iqtisodiyotning resurslardan foydalanish samaradorligi va ekologik barqarorlikka ta'siri baholanib, asosiy farqlari o'rganiladi. Bundan tashqari, yashil iqtisodiyotning omillari - qayta tiklanadigan energiya manbalariga tayanish va ekologik innovatsiyalardan foydalanishning qanchalik o'rinli ekanligi hamda iqtisodiy barqarorlikka qo'shayotgan hissasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida yashil iqtisodiyot modelining zamonaviy iqtisodiy tizimda qo'llanilishi va uning klassik iqtisodiyotga nisbatan ustun jihatlari nazariy jihatdan asoslab beriladi. Qo'shimcha qilib aytganda, "yashil" investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlari hamda barqaror iste'mol va ishlab chiqarish tamoyillarining iqtisodiy tizimga integratsiya qilinishi masalalari o'rganiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot yashil iqtisodiyot yondashuvining nazariy

asoslarini ochib berish hamda uni an'anaviy iqtisodiy model bilan qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, ilmiy izlanish jarayonida bir qator umumilmiy va maxsus tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy jarayonlarni kompleks baholash imkonini beruvchi tizimli yondashuv asosida shakllantirildi. Ushbu tadqiqot davomida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining asl mohiyatini ochib berish hamda uning klassik iqtisodiyotdan ustuvor va farqli tomonlarini yoritib berishda qator ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi. Birinchi navbatda, nazariy-tahliliy metod qo'llanildi. Ushbu metod orqali yashil iqtisodiyot va klassik iqtisodiyot konsepsiyalarining shakllanish bosqichlari, ularning nazariy ildizlari hamda ilmiy adabiyotlarda berilgan asosiy talqinlari o'rganildi. Mazkur yondashuv iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni konseptual jihatdan tushuntirishga xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida klassik iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot modellarining maqsadlari, resurslardan foydalanish tamoyillari hamda iqtisodiy samaradorlikni baholash mezonlari o'zaro solishtirildi. Qiyosiy tahlil natijalari ikki iqtisodiy model o'rtasidagi asosiy farqlarni aniqlash va ularning iqtisodiy o'sishga bo'lgan ta'sirini baholash imkonini berdi.


Tadqiqot metodologiyasi asosan nazariy va tahliliy yondashuvlar asosida shakllantirildi. Klassik iqtisodiyotning asosiy maqsadi sifatida maksimal foyda olish va iqtisodiy o'sishga erishish ko'zda tutiladi hamda bundagi muvaffaqiyat asosan yalpi ichki mahsulotning o'sishi va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar orqali baholanadi, ekologik omillar esa ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Yashil iqtisodiyot tushunchasiga keladigan bo'lsak, bu konsepsiya iqtisodiy rivojlanishning jamiyat farovonligiga zarar yetkazmaydigan ko'rinishi bo'lib, ya'ni tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga imkon qadar kamroq zarar yetkazgan holda iqtisodiy o'sishga erishishni maqsad qiladi. Iqtisodiy jarayonlar natijasida tabiatga ma'lum darajada shikast yetadi, yashil iqtisodiyot esa bu zararni minimallashtirish bilan bir qatorda rivojlanishni ta'minlashga intiladi. Ushbu jarayonda iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik uyg'un holda amal qiladi: kam uglerodli resurslardan foydalanish, qayta

tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish va ekologik innovatsiyalarni qo'llash asosiy maqsad sifatida belgilanadi.

Tadqiqotda, shuningdek, statistik va indikatorlar asosidagi tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida iqtisodiy o'sishni baholashda qo'llaniladigan an'anaviy ko'rsatkichlar, jumladan yalpi ichki mahsulot (YaIM) hamda yashil iqtisodiyot doirasida muhim hisoblangan karbon chiqindilari darajasi, qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushi va resurslardan foydalanish samaradorligi kabi indikatorlar tahlil qilindi. Indikatorlar asosidagi yondashuv iqtisodiy rivojlanishning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatlarini ham aniqlash imkonini berdi.

Tizimli tahlil jarayonida ikki iqtisodiyotning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi yoritib beriladi. Mazkur yondashuvda iqtisodiy faoliyat oddiy jarayon sifatida emas, balki ekologik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadigan murakkab tizim sifatida tahlil qilinadi. Ushbu metod yordamida yashil iqtisodiyotda qabul qilinadigan qarorlarning aholi sog'lig'iga, hayot sifatiga, ekologiya va resurslardan foydalanishga ko'rsatadigan ta'siri baholanadi. Masalan, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi qisqa muddatda sezilarli foyda keltirishi mumkin bo'lsa-da, tizimli tahlil bu jarayon ekologik muvozanatning buzilishiga, resurslarning keskin kamayishiga va ijtimoiy xarajatlarning ortishiga olib kelayotganini ko'rsatadi. Statistik va indikatorlar asosidagi tahlil usuli iqtisodiy jarayonlarni raqamlar va aniq ko'rsatkichlar orqali baholashga xizmat qiladi. Klassik iqtisodiyot doirasida iqtisodiy rivojlanishning eng muhim ko'rsatkichi sifatida yalpi ichki mahsulot (YaIM) qaraladi [7] YaIM o'sishi orqali ishlab chiqarish darajasi va iqtisodiy muvaffaqiyat baholanadi, ekologik va ijtimoiy omillar esa ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Yashil iqtisodiyotda esa iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun qo'shimcha indikatorlardan foydalaniladi. Jumladan, karbon chiqindilari darajasi, qayta tiklanadigan energiya ulushi va yashil investitsiyalar hajmi asosiy mezonlar sifatida e'tirof etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot davomida olingan natijalar iqtisodiy modellarni baholash va yashil iqtisodiyot konsepsiyasining amaliy ahamiyatini aniqlash imkonini beradi. Klassik iqtisodiyotda ayrim tadqiqotchilarning fikricha, iqtisodiy samaradorlikning eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri - yalpi ichki mahsulot (YaIM) bo'lib, u mamlakatda ma'lum vaqt



ichida ishlab chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlarning jami qiymatini ifodalaydi [5]. Biroq YaIM ekologik va ijtimoiy omillarni inobatga olmaydi, ya'ni atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar darajasini aks ettirmaydi. Yashil iqtisodiyot esa iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga qanchalik zarar yetkazayotganini o'lchash imkonini beruvchi muhim ko'rsatkichlarni, jumladan karbon chiqindilari darajasini hisobga oladi. Bundan tashqari, boshqa tadqiqotchilarga ko'ra, resurslardan foydalanish samaradorligi — tabiiy boyliklardan (masalan, suv, energiya va mineral resurslar) qanchalik optimal foydalanilayotganini ifodalovchi ko'rsatkich - yashil iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish bilan birga, ularning kelajak avlodlar uchun saqlanishiga ham xizmat qiladi. Klassik va yashil iqtisodiyot o'rtasidagi asosiy farqlar ularning samaradorlik mezonlari va resurslardan foydalanish tamoyillarida yaqqol namoyon bo'ladi [1].

Tahlil va natijalar. Klassik iqtisodiyot modelida resurslar ko'pincha cheksiz manba sifatida qaraladi va ularning taqchilligi bilan bog'liq muammolarga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Yashil modelda esa iqtisodiy samaradorlik nafaqat iqtisodiy o'sish bilan, balki atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda resurslardan oqilona foydalanish bilan baholanadi. Yashil investitsiyalar iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida ekologik toza va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarni anglatadi. Bunga gidroenergetikani misol qilish mumkin. Ushbu jarayonda tabiiy ne'matlardan ularga zarar yetkazmagan holda zarur iqtisodiy resurslar olinadi. Shunga yaqin tushuncha sifatida ekologik innovatsiyalar konsepsiyasi ham mavjud bo'lib, u iqtisodiy jarayonlarning tabiiy resurslarga va ekologiyaga bo'lgan ta'sirini minimallashtirishni maqsad qiladi. Ushbu yondashuv orqali mamlakatlar nafaqat iqtisodiy foyda ko'radi, balki tabiiy resurslarni tejash va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikni ham ta'minlaydi. Shu bois, yashil iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda investitsiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish asosiy strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston uchun ham bir qator statistik ma'lumotlar bu mamalakat ham yashil iqtisodiyotda tamoyillarini qo'llayotganini ko'rsatadi. Masalan, mamlakat strategiyasiga

ko'ra 2030 yilga qadar qayta tiklanadigan energiya manbalarining umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarishidagi ulushi 25 % dan yuqori bo'lishi rejalashtirilgan. Shuningdek, global statistiklar shuni ko'rsatadiki, yashil investitsiyalar energiya sohalarida ish o'rinlarini ham yaratmoqda; 2022 yilda qayta tiklanadigan energetika sektori taxminan 14 milliondan ortiq ish o'rinlarini ta'minlagan. Shu bilan birga, "yashil o'sish elastikligi" tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. Ushbu konsepsiya iqtisodiy tahlillarda deyarli qo'llanilmasa-da, katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Boshqa iqtisodiy tahlillardan farqli ravishda, bu ko'rsatkich faqatgina resurslar hajmini emas, balki iqtisodiy o'sish sifatini baholaydi. Ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, yashil o'sish elastikligi nolga yaqinlashgan sari iqtisodiy tizim innovatsion bosqichga o'tadi. Quyidagi holatlarda iqtisodiy o'sish resurslar hajmiga emas, balki bilim, texnologiya va nazorat samaradorligi kabi kapital turlariga asoslanadi. An'anaviy metodlarda elastiklik doimo musbat qiymatni ko'rsatadi, bu esa iqtisodiy o'sish ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Aksincha, yashil o'sish elastikligi ko'p hollarda manfiy qiymatlarni namoyon etib, iqtisodiy o'sish atrof-muhitga kam zarar yetkazish bilan bir vaqtda uni tiklash jarayoni bilan ham kechayotganini ko'rsatadi. Boshqa manbalarda aytilishicha yashil o'sish elastikligi iqtisodiy o'sishning "yashirin chegaralarini" aniqlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy iqtisodiy modelda elastiklik ma'lum darajadan keyin keskin oshib ketadi, bu esa ekologik inqiroz xavfini kuchaytiradi. Yashil iqtisodiyot yondashuvida esa ushbu elastiklikni muvozanatda ushlab turish iqtisodiy siyosatning asosiy vazifasiga aylanadi.

Olingan natijalar yashil iqtisodiyot va klassik iqtisodiyot o'rtasidagi konseptual farqlarni yanada aniqroq yoritishga imkon berib, ularning nazariy va amaliy jihatdan chuqur baholanishini talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, uglerod chiqindilarini qisqartirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan kengroq foydalanish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy rivojlanishga to'stinlik qilmaydi. Aksincha, ushbu omillar uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish uchun zarur sharoit yaratadi. Xususan, yashil investitsiyalar va ekologik innovatsiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish

bilan birga, ijtimoiy xarajatlarning kamayishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda [10]. Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni samarali davlat siyosati hamda moliyaviy mexanizmlarning o'zaro uyg'unligini talab etishini ko'rsatadi. Agar iqtisodiy qarorlar faqat qisqa muddatli iqtisodiy manfaatlarga asoslangan holda qabul qilinsa, ekologik va ijtimoiy muammolar yanada kuchayishi mumkin. Shu sababli, yashil iqtisodiyot yondashuvi bugungi iqtisodiy siyosatda muqobil model emas, balki barqaror rivojlanishni ta'minlovchi muhim strategik yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradimi yoki uni yangi sifat bosqichiga olib chiqadimi, degan masala ilmiy bahslarning markazida turadi. An'anaviy yondashuv tarafdorlari atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan talablar ishlab chiqarish tannarxini oshirib, korxonalar raqobatbardoshligini susaytirishini ta'kidlashadi. Biroq kam tilga olinadigan jihat shundaki, an'anaviy iqtisodiy tizimda past xarajatli ishlab chiqarish aslida ekologik zararlarni keyingi avlodlar zimmasiga yuklash evaziga amalga oshiriladi. Yashil iqtisodiy model esa bunday yashirin yo'qotishlarni hozirgi iqtisodiy qarorlar doirasiga kiritishni nazarda tutadi.

Bahsli jihatlardan yana biri innovatsion jarayonlarning qayerdan kelib chiqishi bilan bog'liq. An'anaviy iqtisodiy modelda yangiliklar asosan ishlab chiqarish hajmini tezlashtirishga xizmat qilsa, yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalar kamroq resurs sarflagan holda yuqori qo'shimcha qiymat yaratishga yo'naltiriladi. Ko'pchilik e'tibor bermaydigan muhim nuqta shuki, yashil texnologiyalar iqtisodiy o'sishni energiya va xomashyo iste'moliga to'liq bog'liq bo'lmagan holga keltiradi. Natijada iqtisodiy taraqqiyot va resurslardan foydalanish o'rtasidagi bevosita bog'liqlik sezilarli darajada zaiflashadi. Bundan tashqari, yashil iqtisodiy yondashuv ijtimoiy tenglik masalasini ham iqtisodiy o'sish bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqadi. An'anaviy tizimda ekologik salbiy ta'sirlar asosan kam daromadli aholi qatlamlariga to'g'ri kelar ekan, iqtisodiy manfaatlar ko'proq yuqori daromad egalari qo'lida jamlanadi. Yashil iqtisodiyot esa ushbu nomutanosiblikni ekologik adolat konsepsiyasi orqali muhokama maydoniga olib chiqadi. Mazkur tushuncha o'quv adabiyotlarida

kam uchrasa-da, amaliy iqtisodiy siyosat nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot davomida yashil iqtisodiyot va klassik iqtisodiyot konsepsiyalari solishtirildi hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy iqtisodiyot asosiy e'tiborni iqtisodiy barqarorlik va foyda olishga qaratgan bo'lsa, yashil iqtisodiyot barqaror iqtisodiy yuksalishga erishishda ekologik va ijtimoiy omillarni ham inobatga olgan holda shakllangan. Tahlillar yashil iqtisodiyotda iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik o'zaro uyg'unlashganini hamda jamiyat farovonligi bilan ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qilishini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni birlashtiruvchi innovatsion model sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, iqtisodiy siyosatni shakllantirishda va barqaror ishlab chiqarish tamoyillarini joriy etishda yashil iqtisodiyot tamoyillarini asosiy yo'nalish sifatida qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Raworth K. Doughnut Economics: Seven Ways to Think Like a 21st-Century Economist. Chelsea Green Publishing. 2017.
2. Schumacher, E.F. Small Is Beautiful: Economics as if People Mattered. Blond & Briggs. 1973.
3. Hawken P., Lovins A.B., Lovins L.H. Natural Capitalism: Creating the Next Industrial Revolution. Little, Brown and Company. 1999.
4. Jackson T. Material Concerns: Pollution, Profit and Quality of Life. Routledge. 1996.
5. Saito K. Capital in the Anthropocene. Cambridge University Press. 2020.
6. OECD. Towards Green Growth. OECD Publishing. 2021.
7. UNEP. Global Green Economy Outlook. United Nations Environment Programme. 2022.
8. Balasubramanian S. Dharmanomics: An Indigenous and Sustainable Economic Model. Penguin India. 2024.
10. Erkinov A, Kadirov D. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishining barqaror iqtisodiy o'sishdagi o'rni. 2021.